

**ABDULLA AVLONIYNING “ TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ “
ASARIDAGI TARBIYA VA TA’LIMNING BIR- BIRI BILAN UZVIY BO’LIQLIGI.**

Abduxakimova Xusniyabonu Xasan qizi

Toshkent Iqtisodiyot va Pedagogika

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 1-kurs Talabasi

Telefon raqami: +99894 595 08 21

Elektron pochta: xusniyabonuabduxakimova@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 30.03.2026

Revised: 31.03.2026

Accepted: 01.04.2026

KALIT SO’ZLAR:

*Abdulla Avloniy,
Turkiy Guliston yoxud
axloq, jadidchilik,
ma’rifatparvarlik, milliy
uyg’onish, pedagogika,
axloqiy tarbiya,
vatanparvarlik,
Turkiston, komil inson.*

Ushbu tadqiqotda Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari jadidchilik davri ma’rifatparvarlik falsafasining fundamental asosi sifatida tahlil qilinadi. Maqolada asarning kompozitsion qurilishi, axloqiy kategoriyalarning tasnifi va ularning bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan.

Kirish

Jadid Ma’rifatparvarligining Tarixiy Zaminlari

XX asr boshlarida Turkiston o’lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar millatni uyg’otish uchun yangi turdagi adabiyot va darsliklarga ehtiyoj tug’dirdi. Abdulla Avloniy o’zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" (1913) asari bilan nafaqat maktablar uchun darslik yaratdi, balki millatning ma’naviy qiyofasini belgilab beruvchi "Axloq qoidalari"ni taqdim

etdi. Muallif o‘zidan oldin o‘tgan buyuk mutafakkirlar Sa‘diy Sheroziyning "Guliston"i va Shayx Muslihiddinning o‘gitlaridan ilhomlangan bo‘lsa-da, asarni butunlay turkiy ruh va mahalliy sharoitga moslashtirdi va mukammal tarzda bizga taqdim etdi.

Avloniy axloqni shunchaki nazariya emas, balki amaliy harakat deb bildi. U asarni to‘rt asosiy ustunga quradi:

Yaxshi xulqlar (Fazilatlar): Bu yerda adib g‘ayrat, shijoat, ilm, iffat va adolat kabi 30 dan ortiq ijobiy sifatlarini tahlil qiladi.

Yomon xulqlar (Razolatlar): Jaholat, g‘azab, yolg‘on, adovat kabi jamiyatni ichidan kemiruvchi illatlarni fosh etadi va bu illatlarning qanchalik bizga zarar keltirishini yaqqol isbotlab berdi.

Tarbiya: Muallif tarbiyani tana, aql va nafs tarbiyasiga bo‘lib o‘rganadi.

Odob: Ijtimoiy munosabatlarda saqlanishi kerak bo‘lgan me‘yorlar.

Avloniy asarida qo‘llanilgan iboralar o‘zining semantik ko‘lami bilan ajralib turadi:

"Nafsning jilovi": Bu ibora asarda insonning o‘z xohish-istaklari ustidan nazoratini anglatadi. Avloniy nafsni "quturgan ot"ga, aqlni esa "mohir chavandoz"ga o‘xshatadi. Agar aql jilovni qo‘ldan bersa, insoniyat halokatga yuz tutishini ta‘kidlaydi. Nafsni har xil yomon yo‘llarga kirib ketishdan asrab, ertangi kunga nima hozirlab qo‘yayotganiga e‘tibor qilgan inson chin baxt egasi hisoblanadi. Nafsni tarbiya qilmas ekan, oqibati ayanchli bo‘ladi. Nafsni dushmanlarning ichida ko‘rinmas dushmanga o‘xshatish mumkin. Bu xususda Rasululloh sallollohu alayhi vasallamdan bunday hadis keltiriladi: "Dushmanlarning ichida eng ashaddiy ichki dushman – o‘z nafsingdir". Inson tafakkur qiladigan bo‘lsa, sirdan kelayotgan dushmanni ko‘rishi va unga qarshi tayyorgarlik ko‘rishi mumkin. Lekin ichidagi dushmanini yengishi ancha mushkul. Chunki u insonning hamma sir-asroridan xabardor bo‘ladi. Insonni yomon ishlarga undaydi, gunohga targ‘ib etadi. Shu sababli har kim o‘z nafsini taftish qilib, uni kuzatishdan hargiz beporvo bo‘lmasligi kerak. Inson hayot ekan, nafs bilan bo‘lgan savol-javoblar va ba‘zan g‘alayonlar sira ham to‘xtamaydi. Nafs tinimsiz tarbiyaga muxtoj, biroz bo‘sh qo‘ysa, darhol ishratga moyil qiladi. Nafs tufayli odam bolasi kayfu safoga, yomon xayollarga g‘arq bo‘ladi. Zero, insonning o‘z vujudini idora qiluvchi bir boshqaruvga ehtiyoji bordir. Nafs insonning shu ehtiyojini qondiradi.

"Vatan sevgisi imondandir": Muallif bu hadisni shunchaki diniy shior sifatida emas, balki ijtimoiy burch sifatida talqin qiladi. Uning nazarida, vatanni sevish — uni obod qilish, ilm-fan bilan qurollantirish va milliy o‘zlikni saqlab qolishdir.

"Ilm — saodat kaliti": Bu yerda "kalit" metaforasi orqali barcha ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning yechimi faqat ma'rifatda ekanligiga urg'u beriladi.

Tarbiya — Jamiyat Taraqqiyotining Kuchi

Avloniyning mashhur g'oyasi: "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir." Bu jumladagi antiteza (qarama-qarshilik) orqali muallif tarbiyaning naqadar strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Uning fikricha, agar millat o'z farzandlarini zamonaviy ilm va milliy axloq bilan tarbiyalamasa, mustamlakachilik kishanlaridan hech qachon qutila olmaydi. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini bugun, har qachongidan ham yaxshi anglaymiz.

Tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga ayon. Ammo bugun kishilarimizga ana shu haqiqatni aytsangiz sizga: "Nima qilay, ishlamasang bo'lmasa!", "Ko'ryapsiz-ku, osonmas, hayot tashvishlari, bolalarning yeb-ichishi-yu, kiyim kechagi ...", "Ha endi o'zi omon bo'lsa, tarbiyasi bir gap bo'lar..."

Yo'q, tarbiya "bir gap bo'ladigan" narsa emas! Uning uchun jon kuydirish shart. Moldingo, kiyim-kechakka hirs qo'yish dardidan forig' bo'lib, tarbiya bilan shug'ullanish kerak.

Go'yo ko'pchilikning farzand tarbiyasi bilan band bo'lishga ortiqcha vaqti yo'q emish. Vaholanki, tarbiya masalalari bilan ortiqcha vaqtda emas, har daqiqada shug'ullanish darkor. Olimlar bir sutkada farzand tarbiyasi uchun faqatgina o'n ikki daqiqagina vaqt ajratadigan ota-onalar bor ekanini aniqlaganlar. Bu daqiqalar ham asosan dasturxon atrofida o'tirganda, bola ko'chaga chiqayotganda, maktabga ketayotgandan beriladigan kichik tanbehlarga sarf bo'lar ekan, xolos.

Buyuk vatandoshimiz Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning sa-vobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi". Zero, bugun ilm-fan va ta'lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta'limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta'lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga

muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lim berishdan maqsadi kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan halol kadrlarni tarbiyalash bo'lsagina, bunday ta'lim-tarbiya o'z samarasini bermay qolmaydi. Ya'ni, bugungi kunning o'qituvchi va muallimi o'zi ta'lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta'lim berishi, qolaversa jonkuyar tarbiyachi bo'lishi shart. Ayni damda tarbiya sohasida o'qituvchi va muallimlar o'quvchi yoshlarga shaxsan namuna bo'lishlari ham muhimdir!

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi". Shunday ekan, ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borish talab etiladi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liqdir. Shu sababli har bir ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, o'nib-o'sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa ma'naviy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimizni sog'lom, komil inson qilib tarbiyalaylikki, ular o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga, muqaddas dinimiz an'analarga sodiq bo'lishsin. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari bugungi kunda ham o'zining metodologik ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U komil insonni shakllantirishni taklif etadi. Avloniyning pedagogik qarashlari "Inson qadri" tamoyili bilan hamohangdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
2. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.

3. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet, 2006.
4. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent, 2000.
6. O‘zbekiston musulmonlar idorasi <https://muslim.uz>

